

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
HUZURIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMiy-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**«STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH
ASOSLARI» modulidan**

O' Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Tuzuvchi: dots. A.G'ulomov

Toshkent 2015

Mundarija

ISHCHI O'QUV DASTURI	3
1-MAVZU: STANDARTLASH TIRISH ASOSLARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING STANDARTLASH TIRISH DAVLAT TIZIMI VA MILLIY METROLOGIK XIZMATI ASOSIY	8
2-MAVZU. SERTIFIKATLASH TIRISH ASOSLARI.....	16
3-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SERTIFIKATSIYALASH TIRISH MILLIY TIZIMIDA MAHSULOTNI SERTIFIKATSIYADAN O'TKAZISH ..	20
4-MAVZU: TO'QIMACHILIK TOLA, IPLARI VA TAYYOR MAHSULOTLAR STANDARTLARINI O'RGANISH	24
TEST SAVOLLARI.....	24

ISHCHI O'QUV DASTURI

Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari umumkasbiy va maxsus fanlardan dars beruvchi pedagoglar malakasini oshirish kursining **maqsadi** – pedagogik faoliyatida nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalari umumkasbiy va maxsus fanlardan dars beruvchi pedagoglar malakasini oshirish kursining **vazifasi** – pedagogik kadrlar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, ta'lim va tarbiya haqidagi hujjatlar, pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, amaliy xorijiy til, xorijiy ta'lim tajribasi, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish sifatini baholash ishlari, yengil sanoat texnologiyasidagi innovatsiyalar va dolzarb muammolar mazmunini o'rganishga yo'naltirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni;
- “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa qonun hujjatlarining qabul qilinishi, mohiyati va ahamiyatini;
- Standartlashtirish asoslari O'zbekiston respublikasining standartlashtirish davlat tizimi va milliy metrologik xizmati asosiy qonun-qoidalarini;
- Sertifikatlashtirish asoslari. O'zbekiston milliy sertifikatlashtirish tizimini;
- O'zbekiston respublikasi sertifikatsiyalashtirish milliy tizimida mahsulotni sertifikatsiyadan o'tkazish tartibi va qoidalarini;
- **To'qimachilik** tola, iplari va tayyor mahsulotlar standartlarini
- pedagogik mahorat asoslarini **bilishi** kerak.

Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Mazmuni o'quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barcha sohalar bilan uzviy bog'langan holda ularning nazariy asoslarini ochib berishga, pedagoglarning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda me'yoriy-huquqiy asoslar bo'yicha umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mahsulotni sertifikatsiyadan o'tkazishning ahamiyati. Mahsulot sertifikatsiyasi muvofiqlik sertifikati va belgisi. Ishlab chiqarish va sifat tizimlarini sertifikatlashtirish

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda ta'lim-tarbiyaning milliy g'oya negizlariga tayangan holda amalga oshirish konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

Modul bo'yicha bo'yicha soatlar taqsimoti

Ushbu o'quv modulida tinglovchining o'quv yuklamasi – 10 soat bo'lib, shundan amaliy mashg'ulotlar 6 soatni hamda mustaqil ta'lim 2 soatni, ko'chma mashg'ulot 2 soatni tashkil etadi. Nazariy mashg'ulot nazarda tutilmagan.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni

	Modul birliklari nomi va tarkibi	Mashg'ulot turi	Soatlar miqdori
	Standartlashtirish asoslari O'zbekiston respublikasining standartlashtirish davlat tizimi va milliy metrologik xizmati asosiy qonun-qoidalari	Amaliy	2
	Sertifikatlashtirish asoslari. O'zbekiston milliy sertifikatlashtirish tizimi.	Amaliy	2
	O'zbekiston respublikasi sertifikatsiyalashtirish milliy tizimida mahsulotni sertifikatsiyadan o'tkazish tartibi va qoidalari	Amaliy	2
	To'qimachilik tola, iplari va tayyor mahsulotlar standartlarini o'rganish.	Ko'chma mashg'ulot	2
Jami			8

Mustaqil tayyorgarlik mavzulari

	Modul birliklari bo'yicha mustaqil tayyorgarlik mavzulari	Soatlar miqdori
1.	To'qimachilik tola, iplari va tayyor mahsulotlar standartlarini o'rganish	2
Jami		2

Amaliy mashg'ulot mavzusi

“Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari” modulida amaliy mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish Davlat tizimining asosiy qonun-qoidalari. Standartlashtirish haqida ma'lumotlar. toqimachilik mahsulotlarini standartlashtirishning turlari. O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g'risidagi qonuni. Mahsulot sertifikatsiyasi qoidalari va uni sertifikatini berish tartibi bo'yicha amali malaka ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Ko'chma mashg'ulot mazmuni

“Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari” modulida ko'chma mashg'ulotlar zamonaviy jixozlar bilan jixozlangan CentexUz maxsus sertifikatsiya laboratoriyasida va Respublika “Sifat” markazi laboratoriyalrda olib boriladi.

Mustaqil ta'lim mazmuni

“Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari” modulida mustaqil ta’lim mashg’ulotlari toqimachilik va yengil sanoat sohasidagi mavjud standartlar va ularning mazmuni bo’yicha o’z malaka va ko’nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

KALENDAR REJA

№	Mavzular	Mashg’ulot turi	Soati	O’kaziladigan muddati
1	Standartlashtirish asoslari O’zbekiston respublikasining standartlashtirish davlat tizimi va milliy metrologik xizmati asosiy qonun-qoidalari	Nazariy	2	Ikkinch hafta
2	Sertifikatlashtirish asoslari. O’zbekiston milliy sertifikatlashtirish tizimi.	Nazariy	2	Ikkinch hafta
3	O’zbekiston respublikasi sertifikatsiyalashtirish milliy tizimida mahsulotni sertifikatliyadan o’tkazish tartibi va qoidalari	Amaliy	2	Uchinchi hafta
4	To’qimachilik tola, iplari va tayyor mahsulotlar standartlarini o’rganish.	Ko’chma mashg’ulot	2	To’rtinch hafta
Jami			8	

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 25-sonli Qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risidagi” PQ-1533-son Qarori.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 278-sonli Qarori.

4.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iste'dod, siyosat, mafkura, 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. I.A.Karimov. Bizdan obod va ozod vatan qolsin, 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir, 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo'lida, 4-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash–davr talabi, 5-jild.– T.: O'zbekiston, 1997.
7. I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.: O'zbekiston, 1998.
8. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. I.A.Karimov. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: O'zbekiston, 1996.
10. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz, 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
11. I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz, 9-jild. – T.: O'zbekiston, 2001.
12. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkura – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: O'zbekiston, 2000.
13. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994.
14. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
15. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: «Ma'naviyat». –T.: 2008.-176 b.
16. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: «O'zbekiston». –T.: 2011.-440 b.
17. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, «Halq so'zi», 1998 y., 15 may 2- bet.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 25-sonli Qarori.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi” PQ-1533-son qarori.
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 278-sonli qarori
21. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. - T.: TDPU, 2002y. 218 b.
25. Nikolaev S.D., Xasanov B.K., Sodikova N.R. To'qishga tayyorlash jarayonlari nazariyasi va texnologiyasi. O'zbekiston, 2004. 200b.

26. Olimboev E.Sh, Davirov Sh.N. «O'zbekiston korxonalarining maxsuloti va ularni ishlab chikarish texnologiyasi» T. 2002 y. 148b.
27. Olimboev E.Sh. va boshqalar «Gazlamalarni tuzilishi va tahlili» T. 2003 y. 176b.
28. P.T. Bukaev “Ip gazlama ishlab chikarishning umumiy texnologiyasi”, Toshkent, “o'qituvchi”-184 b.
29. E.Sh. Alimboev va boshqalar “To'quvchilik texnologiyasi va to'quv stanoklari” Toshkent, “O'qituvchi”- 1987y. 216 b.
30. . *P R Lord and M H Mohamed* . WEAVING. Conversion of yarn to fabric. Second edition *Edited by, North Carolina State University, USA* ,408 pages, 1982
- 8.S *Adanur*. HANDBOOK OF WEAVING. *Edited by, Department of Textile Engineering, Auburn University, USA* ,2000, 440 pages.
31. *A R Horrocks and S Anand.*; HANDBOOK OF TECHNICAL TEXTILES *Edited by The Bolton Institute, UK* , 576 pages , 2000.
32. Dan J. McCreight, James B. Bradshaw.WEAVERS HANDBOOK OF TEXTILE CALCULATIONS. Everett E. Backe, and Michael S. Hill, Institute of Textile Technology, USA, 105 pages, 2000.

Internet ma'lumotlarni:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: www.gov.uz
3. O'zbek internet resurslarining katalogi: www.uz
4. www.press-uz.info
5. <http://www.uforum.uz>

**1-MAVZU: STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING STANDARTLASHTIRISH DAVLAT TIZIMI VA MILLIY
METROLOGIK XIZMATI ASOSIY
QONUN-QOIDALARI**

Nazariy mashg'ulot – 2 soat

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish Davlat tizimining asosiy qonun-qoidalarini.
2. Standartlashtirish haqida ma'lumot.
3. Standartlashtirishning turlari.
4. O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g'risidagi qonuni

O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish Davlat tizimining asosiy qonun-qoidalarini O'zDst 1.0-99 standartida batafsil keltirilgan.

Har bir standartda standartlashtirishning asosiy vazifa va maqsadi, standartlashtirish ishlarining tashkil etilishi va asosiy qonun-qoidalarini, me'yoriy hujjatlarning toifasi, standart turlari, xalqaro hamkorlik bo'yicha asosiy qoidalar, standart va texnikaviy shartlarning qo'llanilishini, standartlarga va o'lchov vositalariga nisbatan davlat nazoratini belgilaydi.

Bu standartlashtirish davlat tizimining standart qoidalarini barcha davlat, jamoa, aksionerlik, qo'shma va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar, kontsernlar, uyushmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa birlashmalar, keyinchalik - korxonalar tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va davlat boshqarishning boshqa idoralari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralari, shuningdek tashabbuskorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar tomonidan butun O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanilishi shart.

Ctandardlashtirish - mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat.

Me'yoriy hujjat - har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiy qonun-qoidalar yoki tavsiflarni o'zida qamrab olgan hujjatdir.

Ctandard – ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarida eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan va faoliyatining har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiy na takror qo'llash uchun qoidalar, umumiy qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan hujjat.

Har bir yaratilgan standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslanishi va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Davlat standarti (O'zDst) -standartlashtirish bo'yicha davlat idorasi yoki boshqa tegishli huquqga ega bo'lgan respublika idorasi O'zstandart Agentligi tomonidan tasdiqlangan standart.

Texnikaviy shartlar - buyurtmachi bilan kelishilgan holda ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki buyurtmachi va ishlab chiqaruvchi bilan birgalikda yoki buyurtmachi bilan tasdiqlangan aniq mahsulotga (xizmatga) bo'lgan texnikaviy talablarini belgilovchi me'yoriy hujjat.

Mahsulotga texnikaviy hujjatlar to'plami ishlab chiqilayotganda texnikaviy shartlar shu to'plamning ajralmas qismi hisoblanadi.

Korxonalar standarti (KC) - mahsulotga, xizmatga yoki jarayonga korxonaning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va uning tomonidan tasdiqlangan standartdir.

Standartlar majmui - o'zaro bog'langan standartlashtirish ob'ektlariga kelishilgan talablarni belgilovchi va ma'lum ilmiy-texnikaviy yoki ijtimoiy iqtisodiy muammolarni echimini me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashga umumiy maqsad bilan birlashgan va o'zaro bog'langan standartlar to'plami.

Xalqaro standart - standartlashtirish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standart.

Mintaqaviy standart - standartlashtirish bilan shug'ullanadigan mintaqaviy tashkilot qabul qilgan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standart.

Milliy standart - standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standart.

Xalqaro, mintaqaviy yoki chet mamlakatning milliy standarti to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi O'zDst 1.7-2002 standartiga binoan amalga oshiriladi.

Uyg'unlashtirilgan standartlar - mahsulot, jarayon va xizmatlarning o'zaro almashinuvchanligi va taqdim etilgan axborotni yoki sinash natijalarini o'zaro tan olishni ta'minlaydigan standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi turli idoralar bilan birgalikda qabul qilingan va bir xil ob'ektlarga tegishli bo'lgan standartlar.

Birxillashtirilgan standartlar - mazmunan o'xshash, ammo taqdim etilish shakli jihatidan boshqacha uyg'unlashgan standartlardir.

Birxillashtirish - muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlar sonini yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlash.

Standartlashtirish ob'ekti - standartlashtiriladigan narsa (mahsulot jarayon, xizmat).

Standartlashtirish sohasi - o'zaro bog'langan standartlashtirish ob'ektlari majmuidir.

Xavfsizlik - zarar etkazishi mumkin bo'lgan nojo'ya xavf-xatarning yo'qligidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish - atrof-muhitni mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning noqulay ta'siridan himoya qilish demakdir.

Mahsulotni himoya qilish - mahsulotdan foydalanish, transportda tashish va saqlash vaqtida uni iqlim yoki boshqa noqulay sharoitlar ta'sir qilishidan saqlashdir.

Moslashuvchanlik - mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarning o'zaro nomaqbul ta'sir ko'rsatmaydigan tarzda birgalikda, topshiriqdagi sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun foydalanishga yaroqliligi demakdir.

O'zaro almashinuvchanlik - bir xil talablarni bajarish maqsadida bir xil buyum, jarayon, xizmatdan foydalanish o'rniga boshqa bir xil buyum, jarayon, xizmatning yaroqliligidir.

Bir turdagi mahsulotlar turkumi deb mahsulotning funksional yo'naltirilganligi, qo'llanish sohasi, konstruktiv-texnologik echimi va asosiy sifat ko'rsatkichlarining nomlarini bildiradigan eng katta darajadagi yig'indisiga aytiladi.

Xalqaro standartlashtirish - barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo'lgan standartlashtirishdir.

Mintaqaviy standartlashtirish - ishtirok etishi dunyodagi faqat bitta geografik yoki iqtisodiy regionga qarashli mamlakatning tegishli idoralari uchungina ochiq bo'lgan standartlashtirishdir.

Milliy standartlashtirish - muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirishdir.

Davlat nazorati - korxonalar, lavozimdor shaxslar va fuqarolarni standartlarning majburiy talablariga hamda mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar sifatiga, shuningdek sertifikatlashtirilgan texnikaviy shartlarga rioya etishni nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat idorasining faoliyatidir.

Ctandardlashtirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning (keyinchalik – mahsulot) sifati va nomlari masalasiga davlat va is'temolchilarning manfaatini himoya qilish, kishilar sog'ligi va hayot xavfsizligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish;

- fan va texnikaning rivojlantirilishi bilan aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq ravishda mahsulot sifatini oshirish;

- mahsulotning bir-biriga mosligi va o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash;

- kishilar moddiy resurslarining tejaliishiga, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilanishiga ko'maklashish;

- savdoda texnikaviy to'siqlarni bartaraf qilinishiga, jahon bozorida raqobat qilish qobiliyatining ta'minlanishiga erishish;

- tabiiy va texnologik halokatlari va boshqa favqulodda vaziyatlar ro'y berishini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdir.

Ctandardlashtirish vazifalari. Ctandardlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iste'molchi va davlatning manfaati yo'lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo'yishdan;

- davlat, respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga, kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek hujjatlardan foydalanishini nazorat qilish;

- standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

- bir-biriga moslikning barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, ma'lumot, dastur va boshq.) turlarini, shuningdek mahsulotning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash;

- parametrik va turlar o'lchamli qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan blokli tarkibiy qismlarini aniqlash va qo'llash asosida birxillashtirish;

-mahsulot, uning tarkibiy qismlari, buyumlari, xom ashyo va materiallar ko'rsatkichlari va tavsifning kelishib olish va bog'lanish;

- material va energiya sig'imni kamaytirish, kam chiqindi chiqarish texnologiyalarni qo'llash;

- mahsulotning ergonomik xossalari talablarning belgilanishi;

- metrologik me'yor, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;

- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishni kuchaytirish;

- xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondira olgan hollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarining mamlakat standartlari va texnikaviy shartlar tariqasida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;

- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash; mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarini tashkil qilish;

- texnik-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va joriy etish;

- sinovlarni me'yoriy-texnik jihatdan ta'minlash, mahsulot; sifatini sertifikatlash, baholash va nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasining standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatga olish tartibi O'zDSt 1.1-99 bilan belgilanadi.

Texnikaviy shartlar O'zDSt 1.2-99 da belgilanadi.

Korxonalar standarti O'zDSt 1.3-99 da belgilangan tartibda ishlab chiqariladi, kelishiladi, tasdiqlanadi na ro'yxatdan o'tkaziladi.

To'qimachilik va engil sanoat korxonalarida qo'llanilayotgan asosiy standartlar:

a) texnikaviy shartlar standarti;

b) tajriba uslubining standarti;

v) joylashtirish, taxlash va saqlash standarti;

g) o'lchash asboblari va vositalarni aniqlash uslublari bo'yicha standartlari;

d) to'g'ri ekspluatatsiyalash va sozlash standarti;

e) texnologik jarayonni tashkil qilish bo'yicha standart.

Texnikaviy shartlar standarti – mahsulotga qo'yilgan texnik talabi va tayyorlanishi, tashish va ishlatilishi, to'g'ri qabul qilish, sifat ko'rsatkichlarini uslublar asosida tekshirish, ularni saqlash, qabul qilish va jo'natish uchun qo'yilgandir.

Misol uchun: O'zDSt 604-2001. Paxta tolasi. Texnik sharoit.

Tajriba uslublari uchun standart - tajriba ishlari uchun namunalar tanlash va olish, ularni tekshirish, o'lchash va ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash.

Misol uchun: O'zDst 618-94. Paxta tolasi. Paxta tolasining pishib etilganligini aniqlash standarti.

Tashish, saqlashga rioya qilish bo'yicha standarti – talab markirovkasi bo'yicha aniqlangan mahsulot guruhi mahsulot xususiyatlarini xaridorlarga to'liq xabar berish uchun qo'llanilishi, mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini saqlash vaqtida texnik-estetikani hisobga olmoq kerak.

Misol uchun: O'zDst 841-97. Paxta tolasi. Joylashtirish, saqlash va uni taxlash.

O'lchash asboblari tekshirish uchun standarti - qo'yilgan asboblarning to'g'ri va aniq ta'minlanish uslubini tekshirishni o'tkazishdir.

Misol uchun: GOCT 8.061-73. Shkalalarni tekshirish qurilmasi.

Ishlatilishi va sozlash qoidasi bo'yicha standarti - berilgan sharoit va rejimga berilgan guruh yoki turdagi mahsulotning ishga qobiliyatligi, uning ekspluatatsion xususiyatlarini kafolatlashning umumiy qoidasini ko'rib chiqish. Ba'zi bir holda, standartlash qiyin bo'lgan mahsulotni ekspluatatsiya qilish joyida montaj va demontaj uslubi ko'rib chiqiladi.

Texnologik jarayonni tashkil qilish standarti — texnologik jarayonda mahsulotni berilgan guruh yoki yo'nalish bo'yicha ta'minlash uchun texnologik vositalarni ishga tushirish va uni tekshirish, undan tashqari rivojlangan ishlab chiqarishda yagona sifatli mahsulot bilan ta'minlashni tadbir etishdir.

I bo'lim. Umumiy qoidalar

1-modda. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari

- Standartlashtirishning asosiy maqsadlari:
- -mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan tashqari matnda «mahsulot» deb yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;
- -mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan;
- -fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;
- -barcha turdagi resurslar tejashiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;
- -ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;
- -tabiiy va texnologik falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan;
- -iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan;
- -mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta'minlashdan;
- -o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

2-modda. Davlat standartlashtirish tizimi

- O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi.
- Respublikada standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:
- -xalq xo'jaligi tarmoqlarida — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi);
- -qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda — O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi («Davarxitektqurilish» qo'mitasi);
- -tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida - O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi (Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi);
- -tibbiy maqsadlardagi mahsulotlar, tibbiy texnika ashyolari, dori-darmonlar sohasida hamda respublika sanoati ishlab chiqarayotgan, shuningdek import bo'yicha respublikaga etkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi.

6-modda. Normativ hujjatlarning toifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi:

- -xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- -O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- -tarmoq standartlari;
- -texnik shartlar;
- -korxonalar standartlari;
- -xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari;
- -ma'muriy-xududiy standartlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI METROLOGIYA TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 yil, 2-son, 48-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, 5-6-son, 153-modda; 2003 yil, 5-son, 67-modda)

2-modda. Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari

- Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining o'zga qonun hujjatlaridan iboratdir.
- Qoraqalpog'iston Respublikasida metrologiya sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan xam tartibga solinadi III bo'lim. O'zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tarkib topadi.

10-modda. Davlat metrologiya xizmati

«O'zstandart» agentligi boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi.

Davlat metrologiya xizmati organlari davlat metrologiya tekshiruv va nazoratini, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

IV bo'lim. Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati

12-modda. Davlat metrologiya tekshiruv va nazoratini o'tkazish tartibi

Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

13-modda. Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati ob'ektlari

Quyidagilar davlat metrologiya tekshiruv va nazoratining ob'ektlari hisoblanadi:

- etalonlar;
- o'lchov vositalari;
- moddalar va materiallar tarkibi xamda xossalarining standart namunalari;
- axborot-o'lchov tizimlari;
- o'lchovlarni bajarish uslubiyotlari;
- metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o'zga ob'ektlar.

15-modda. Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati turlari

Davlat metrologiya tekshiruv quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- -o'lchov vositalarining turlarini sinash va tasdiqlash;
- -o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish;
- -o'lchov vositalarini, shu jumladan etalonlarni tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash;
- -o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, metrologik attestatsiya qilish, o'lchov vositalarini va metrologiya faoliyatning boshqa muayyan turlarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish;
- -yuridik va jismoniy shaxslarning o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish, ularning ijarasi bilan shug'ullanishga doir faoliyati litsenziyalanayotganda mazkur shaxslarning belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etishlarini baholash hamda tasdiqlash;
- -o'lchovlarning bajarilish sifatini va metrologiya faoliyatining boshqa turlarini baholash.

Davlat metrologiya nazorati:

- -o'lchov vositalarini tayyorlash, ta'mirlash, ularning ijarasi bilan shug'ullanish, ularni realizatsiya qilish, ularning xolati va qo'llanilishi (fizik o'lchamlar birliklari etalonlari, moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalari standart namunalari, o'lchov tizimlarini qo'shgan holda);
- -o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarining qo'llanilishi;
- -belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishi hamda akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalari faoliyati ustidan amalga oshiriladi.
- Zarur hollarda «O'zstandart» agentligi qaroriga binoan metrologiya tekshiruv va nazoratning boshqa turlari va shakllari ham belgilanishi mumkin.

Tayanch iboralar:

Standart, standartlashtirish, korxonalar, me'yoriy hujjat, O'zDst, texnikaviy shartlar, korxonalar standarti, xalqaro standart, xavfsizlik, mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar, sifat, resurs, metrologiya.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish Davlat tizimining asosiy qonun-qoidalariga nimalar kiradi?
2. Standartlashtirish deganda nimana tushunasiz?
3. Standartlashtirishning qanday turlarini bilasiz?
4. O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g'risidagi qonuni nechta moddadan iborat?
5. Texnikaviy shartlarga nimalar kiradi.

ADABIYOTLAR:

